



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

### KONSTITUTSIYA: TARIX VA BUGUN

**Imomaliyeva Sevinchbonu Azizzon qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*“Xalqaro huquq” fakulteti 1-kurs talabasi*

*Tel: +998 (88) 074-17-45 e-pochta : [sevinchbonusv@gamil.com](mailto:sevinchbonusv@gamil.com)*

**Annotatsiya:** *Ilk davrlardan buyon adolatli qonunlar insoniyat hayoti garovi bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Uning yordamida inson hayoti bir qadar yengillashdi, negaki qonunlar o’zida insonlarning huquq va majmuriyatlarini o’zida mujassamlagan.*

*Ushbu maqolada aksariyat mamlakatlarda Asosiy qonun rolini o’ynovchi Konstitutsianing kelib chiqish tarixi, uning shakllanishi, inson hayotidagi o’rni va O’zbekiston respublikasida konstitutsianing o’rni nechog’liq ekanligi haqida so’z yuritiladi.*

**Kalit so’zlar:** konstitutsiya, inson huqulari, majburiyatlar, davlat, kafolat, huquqbazarlik, erkinlik, huquq, burch, demokratiya.

### CONSTITUTION: HISTORY AND TODAY

**Annotation:** *Since ancient times, fair laws have served as a guarantee of human life. With their help, life has become somewhat easier, as laws embody the rights and responsibilities of individuals.*

*This article discusses the history of the emergence of the Constitution, which plays the role of the Fundamental Law in most countries, its formation, its significance in human life, and the extent of its role in the Republic of Uzbekistan.*

**Keywords:** *Constitution, human rights, obligations, state, guarantee, violation of rights, freedom, law, duty, democracy.*

### КОНСТИТУЦИЯ: ИСТОРИЯ И СЕГОДНЯ

**Аннотация:** *С древних времен справедливые законы служили залогом человеческой жизни. С их помощью жизнь стала несколько легче, так как законы воплощают в себе права и обязанности людей.*

*В данной статье рассматривается история возникновения Конституции, которая играет роль Основного закона в большинстве стран, ее формирование, значение в жизни человека, а также роль Конституции в Республике Узбекистан.*

**Ключевые слова:** *конституция, права человека, обязанности, государство, гарантия, нарушение прав, свобода, право, долг, демократия.*



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bugungi hayotimizni qonunlarsiz tassavvur qila olmaymiz, chunki qonunlar bizning huquq va erkinliklarimizni himoya qilib, majburiyatlarimizni belgilashi bilan ahamiyat kasb etadi. Qonunlar majmuasi esa bu Konstitutsiyadir. Biz Konstitutsiyaga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin:

Konstitutsiya – bu davlatning asosiy qonuni hisoblanib, uning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy tizimini belgilab beradi. U davlat boshqaruv shaklini, hokimiyat tarmoqlarining vakolatlarini va fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi.

Bilamizki, davlatlar paydo bo’la boshlagandan buyon, davlat va shaxslar o’rtasidagi munosabatlar ham shakllana boshlagan, lekin afsuski, bu munosabatlar zamirida davlat manfaatlari yotardi. Shunga qaramasdan insonlar o’z erki va mustaqilliklari uchun ko’p yillar mobaynida kurash olib borishdi va oxir-oqibat demokratiya yo’lida bo’lgan kurashda erishilgan eng katta yutuq inson huquq va manfaatlarining qonunlarda mustahkamlanishi bo’ldi. Lekin nima deb o’ylaysiz o’tgan asrlarda inson huquqlari rostan ham hujjatlarda aks etdimi yoki bu ommani tinchlantirish uchun qilingan quruq va’dabozlik edimi?

Keling, tarixga nazar tashlaylik!

Konstitutsyaning ilk yozma shakli bu AQSH Konstitutsiyasi hisoblanib<sup>33</sup>, 1787-yil 17-sentabrda Filadelfiyada bo’lib o’tgan Konstitutsion konventda qabul qilingan. 1788—yilda esa shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilinib, 1789-yil 4-martdan boshlab rasman kuchga kirgan. Biroq, bu qonun hujjati ham qonunchilik, ijro va sud hokimiyatini tashkil qilish tartibi va federatsiya subyektlarining manfaatlarini ifodalash bilan cheklangandi, xalos, fuqaro va uning huquq va erkinliklari mas’ullar e’tiboridan chetda qolgandi. Xalq bundan norozi bo’ldi va ushbu hujjatda huquqlarini belgilanishini talab qilib chiqdi, natijada esa 1789-yilda inson huquqlariga taalluqli bo’lgan o’nta o’zgartirish kiritildi va bu hujjat “Huquqlar haqidagi Bill” nomi ostida tarixda qoldi. Quyida namuna sifatida o’nta o’zgarishlardan birini keltirib o’tmoqchiman:

Konstitutsiyaga kiritilgan eng muhim va mashhur birinchi tuzatish AQShda din, so‘z, matbuot erkinligi, hamda namoyish va hukumatga qarshi petitsiyalar<sup>1</sup> o’tkazish huquqlariga daxl qiluvchi har qanday qonun qabul qilishni taqiqlaydi. Ushbu huquq va erkinliklar Mustaqillik Deklaratsiyasida nazarda tutilgan inqilobiy xalq hokimiyyati g‘oyasining markazida turadi<sup>34</sup>.

Nima deb o’ylaysiz O’zbekiston Respublikasida huquqiy ahvol qay darajada?

<sup>33</sup> [https://www.google.com/search?q=1787+yil+aqsh+konstitutsiyasi&oq=1787-+yilgi+&gs\\_lcp=EgZjaHJvbWUqCAgBEAYFhgeMgYIABBFGDkyCAgBEAYFhgeMgcIAhAAGO8FMgoIAxAAGIAEGKIEMgcIBBAAGO8FMgcIBRAhGI8CMgcIBhAhGI8CMgcIBxAhGI8C0gEIMTEzMWowajeoAg-wAgHxBUuRr8EvTDmX8QVLka\\_BL0w5lw&client=ms-android-xiaomi-rvo3&sourceid=chrome-mobile&ie=UTF-8#vhid=zephyr:0&vssid=atritem-](https://www.google.com/search?q=1787+yil+aqsh+konstitutsiyasi&oq=1787-+yilgi+&gs_lcp=EgZjaHJvbWUqCAgBEAYFhgeMgYIABBFGDkyCAgBEAYFhgeMgcIAhAAGO8FMgoIAxAAGIAEGKIEMgcIBBAAGO8FMgcIBRAhGI8CMgcIBhAhGI8CMgcIBxAhGI8C0gEIMTEzMWowajeoAg-wAgHxBUuRr8EvTDmX8QVLka_BL0w5lw&client=ms-android-xiaomi-rvo3&sourceid=chrome-mobile&ie=UTF-8#vhid=zephyr:0&vssid=atritem-)

<sup>34</sup> <https://daryo.uz/2022/02/06/dunyo-tarixiga-tasir-korsatgan-ilk-yozma-konstitutsiya-aqsh-bosh-qomusiga-kiritilgan-barcha-ozgarishlar.pdf>

<sup>1</sup> Izoh: petitsiya – davlat organlariga yuboriladigan yozma talab yoki iltimos.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Konstitutsiya fuqarolarning huquqlarini himoya qila olmoqdami?

Barchaga ayonki, o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi uchun takliflar yig'ish ishlari 1990 -yil 20-iyulda boshlangan va 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan. Shu davrdan boshlab hozirgacha 15 dan ortiq o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, eng oxirgi o'zgarishtirishlar 2023-yil 30-aprelda referendum o'tkazish orqali amalga oshirildi va 1-may sanasidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya shakllantirildi. Albatta, o'zgartirishlar foyda berdimi degan savol tug'ilishi tayin. Avvalambor konstitutsianing tuzilish jihatini hisobga oladigan bo'lsak, yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan<sup>35</sup>.

Quyida Konstitutsiyamizga kiritilgan eng asosiy o'zgarishtirishlardan bir nechtasini tahlil qilsak:

### **Imtiyozlar qonunda yozib qo'yilishi shart emas**

Yangi konstitutsianing 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat'i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o'zgarmoqda:

- **Eski:** *Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.*
- **Yangi:** *Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.*

Natijada, imtiyoz berish uchun alohida qonun qabul qilinishiga hojat qolmadi, bu masala mas'ullarning qaror va farmonlari asosida ham hal qilinishi belgilandi.

### **Qarindoshim sudlanganligi uchun ishga kira olmayamanmi?**

Yangi konstitutsianing 28-moddasi (avvalgi 26-modda) - **Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas.**

Eski tahrirda afsuski, bu norma nazarda tutimagan edi, lekin endilikda qarindoshlarning sudlanganligi shaxsning o'qishi, ishlashi va boshqa holatlarda ta'sir o'tkazishi qonun bilan taqiqlanadi.

### **O'qituvchilar alohida e'tirofda**

Konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi. U ikki banddan iborat:

- **O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.**

<sup>35</sup> <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- *Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlilik qiladi<sup>36</sup>.*


Ushbu normada ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Bu esa o‘qituvchilarga qay darajada e’tibor qaratilayotganidan darak beradi.

Kiritilgan o‘zgarishlarga qaramasdan, yana ba’zi masalalar bo‘yicha, xususan, ekologiya sohasiga oid yana qo’shimcha moddalar qo’shilishi g’oyasini ilgari surgan bo’lardim, negaki shuncha qulayliklar yaratilganiga nisbatan, fuqarolar ham atrof-muhitga nisbatan yanada e’tiborliroq bo’lishini, tabiatni asrab-avaylashlarini joiz deb bilaman.

Maqolamni buyuk rim olimi Sitseron Mark Tulliyning bir mashhur jumlesi bilan yakunlamoqchiman.

Ozod yashash uchun qonunlarning quliga aylanish lozim.

Ya’ni agar inson ozod va baxtli yashamoqchi bo’lsa, albatta, qoidalarga itoat etmog’i lozim, zero ayni damdagи demokratik jamiyatda qonunlar xalq manfaati uchun yaralmoqda!




---

<sup>36</sup> <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish#:~:text=O%E2%80%98qituvchilar%20alohida%20e%E2%80%99tirofda,to%E2%80%98g%E2%80%98risida%20g%E2%80%98amxo%E2%80%98rlik%20qiladi.>

